

SIRDARYO VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

TILLAR VA PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

A.O'ROLOV

# NUTQ VA MULOQOT MADANIYATI

**MEYODIK TAYSIYA**

Guliston-2014

Muallif: A. O'ROLOV

Muharrir: R.SHERNAZAROVA

Taqrizchilar: U. BEKMATOVA "Tillar va pedagogika, psixologiya"

kafedrası mudiri

M. Sharipova "Tillar va pedagogika, psixologiya"

kafedrası katta o'qituvchisi

Nashr uchun mas'ul: A. ESHMURODOV – o'quv-metodik va ilmiy

ishlar prorektori

Uzoqov A – «Tahririy-nashriyot»

bo'limi boshlig'i

Metodik tavsiyada nutq madaniyati, muomala odobi, fikrni ifodalash va mulohaza qilish haqida so'z boradi. Tavsiya maktab o'qituvchilari, kollej talabalari hamda maktab o'quvchilari va ushbu sohaga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Ushbu metodik tavsiya SVPKQTMOI ilmiy-metodik kengashining 2014-yil mart oyidagi yig'ilishining №3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Guliston-2014

## **Qalbdan chiqqan soʻz qalbga yoʻl soladi.**

**Nizomiy**

### **ILK SOʻZ**

Ta'lim-tarbiya jarayonining barcha jihatlarini qamrab oluvchi davlat ta'lim standartlari bugungi kunda yosh avlodning Vatanga sadoqat, yuksak axloq, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish hamda o'zi sevgan kasbini mukammal egallashi yo'lida qunt bilan bilim olishlari uchun kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

Dunyoda uch mingga yaqin til mavjud, lekin barcha tillarga ham davlat tili degan sharaflı maqom nasib etmagan. Aksariyat tillar imperiya davlatlarning hududida ma'lum millatlargagina uy-ro'zg'or tili sifatida xizmat qiladi. Yer yuzida o'z suveren huquqiga ega bo'lgan (ikki yuz atrofida) nechta davlat bo'lsa, shunga yaqinroq davlat tili mavjud bo'lar ekan. E'tibor qiling! Milliy qomusimizning ma'lumotiga ko'ra, Yer yuzidagi uch ming tildan atigi 116 tasi davlat tili maqomiga ega<sup>1</sup>. O'zbek tilining bu mo'tabar minbardan o'rin olishi, ya'ni davlat tili maqomiga ega bo'lishi - bu bir baxt, qolaversa, mo'jiza!

Prezidentimiz I.A.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, "Jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmashimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganini ko'rsatadi"<sup>2</sup>.

Ijtimoiy hayotga yo'llanma olayotgan ushbu metodik tavsiya ilk bor nashr qilinayotganligi sababli unda ayrim kamchiliklar va e'tirozli o'rinlar uchrashi tabiiy. Shuning uchun muallif mazkur o'quv qo'llanma yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild, Toshkent, 2005. 528-bet

<sup>2</sup> I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 90-bet

## NUTQIY MUOMALA ME'ZONLARI

O'zining boy tarixi va ma'naviy-madaniy merosga ega bo'lgan o'zbek xalqining muloqot an'analari nafaqat mazmunan, balki shaklan ham rang barangdir. Kishilarni yoshiga qarab hurmat qilish va shunga yarasha munosabatda bo'lish, yoshlarning qariyalarga, ayollarning erlariga, erlarning ayollariga, farzandlarning ota-onalariga, obro'li kishilarga, rahbarlarga bo'lgan izzat-hurmati, mezbonning mehmonga bo'lgan ehtiromining avvalo muloqot jarayonida aks etishi ana shu rang-baranglikni tashkil etadi. Muloqotni amalga oshirishda ma'lum qonun-qoidalar, ta'sir etuvchi omillar- suhbatdoshning millati, jinsi, yoshi, mavqei, yaqinlik darajasi, vaziyat, holat, muhit singari ta'sir birliklari mavjud.

Muloqot davomida so'zlovchi va tinglovchi faoliyatida muttasil ravishda ruhiy va aqliy to'qnashuvlar sodir bo'lib turadi. Har ikki tomon tinglash va munosabat bildirish jarayonida ko'plab bosqichlarni bosib o'tadi.

Muloqot jarayonida so'zlovchi munosabatiga qarab tinglovchi munosabati shakllanadi. Ohang, til birliklari vaziyatdan kelib chiqib tanlanadi. Masalan, **rasmiy muloqotlarda** rahbarga ism-sharifi bilan (*A'zam Suyarovich, Svetlana Akramovna* shaklida); rahbarning xodimga murojaati esa xodimning yoshi, jinsi, mavqeini hisobga olgan holda ismi-sharifi yoki faqat ismini aytish bilan (*Suyun Karimovich, Diloromxon, Xurshidjon* ko'rinishida) shakllanadi. **Norasmiy vaziyatlarda** til birliklari tinglovchining tanish-notanishligi, yaqinligi darajalaridan kelib chiqib tanlanadi. Tilimizda yaqin kishilarga nisbatan *o'rtoq, dugona, aka, opa, oyi, dada, bek, pari, azizim, xonim* so'zlarini; notanish kishilarga nisbatan: *yigit, og'ayni, aka, uka, singil, jiyan, amaki, tog'a, xola, azizim, ota, qizim, bolam* kabi so'zlarni; kasb-hunar va lavozimga nisbatan: *rais buva, domla, xo'jayin, usta, muallim, do'xtir* singari so'zlarni qo'llash odat tusiga kirgan.

Agar ularga *o, ey, xoy, xov kabi* undovlar qo'shib ishlatilsa, murojaat mazmuni o'zgaradi. Ya'ni, bunday murojaatda tinglovchi (eshituvchi)ga nisbatan hurmat darajasi pasayadi. Shuningdek, *anovi, mana bu odam* singari birikmalarni qo'llash ham noto'g'ridir. (*Anovi xotin dugonamning opasi bo'ladi.*)

Nutqiy muloqot kishilarning o'zaro aloqaga kirishishidir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, muomala odobini saqlash nihoyatda og'ir va mas'uliyatli vazifa ekan. Garchi bu fazilatlar umuminsoniy va milliy qoidalar hisoblansa ham, har bir kishi uchun o'zligini ko'rsatuvchi alohida fazilat sifatida ham nomoyon bo'ladi. Shuning uchun bir vaziyatdagi muomala jarayoni boshqa bir vaziyatda qaytarilmasligi mumkin.

Muloqot jarayonida til va tildan tashqaridagi omillar (xulq, tafakkur) baravar ishtirok etadi. Muloqotning zarur sharti: yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqeidan qat'iy nazar suhbatdoshlar o'rtasidagi samimiy munosabat hurmat-ehtirom hisoblanadi. Mana shunday omillar bo'lgan joyda o'z shaxsini ustun qo'yish, mensimaslik, nutqni ortiqcha ovoz va harakatlar bilan ifoda etishga o'rin qolmaydi. Bunday paytlarda suhbat ijobiy yakunlanadi.

*Suhbat chog'ida ohang juda katta vazifani bajaradi.* Kayfiyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar eng ma'qul ohangni tanlash so'zlovchini maqsadiga erishtiradi. So'zlarni aniq-ravshan talaffuz qilish, muloyim va mayin ovoz bilan gapirish tinglovchida suhbatdoshini tushunish istagini paydo qiladi. Suhbat jarayoni turli paytlarda, turli vaqtlarda yuz berishi mumkin. Har bir vaziyat o'z qoidalariga ega.

Har bir so'zni (masalan «*o'tiring*» so'zini) turli ohangda talaffuz qilish bilan vaziyatga qarab *iltimos, talab, maslahat, ogohlantirish, buyruq, jerikish* kabi ma'nolarni ifoda etish mumkin. Shuning uchun gapirganda ohangga ehtiyot bo'lish lozim.

Qayerda, nima haqda gapirishni bilish ham nutq odobining eng zarur shartlaridan biridir. Masalan, to'yda o'lim va a'zadan gapirish ma'qul bo'lmaganidek, a'zada ham to'yu tantanadan so'zlash yoki kulib o'tirish, bo'lar-bo'lmasga yonidagilarni gapga tutish ma'qul ish emas. Atrofdagilarning kayfiyatini, yoshini, mavqeini hisobga olmasdan hazil qilish yoki gapirish farosatli kishining ishi emas. Maqtov va xushomad hammaga yoqadi, ammo u nosamimiy (xasad yoki piching ma'nosida) bo'lsa hurmat sanalmaydi.

Yoshi kattalarning gapirishlariga ko'proq imkoniyat berish lozim, Suhbatdoshning gapini mumkin qadar maqullab turish, agar bildirayotgan fikrlari ma'qul bo'lmasa, buni yotig'i bilan tushuntirish, hech imkoni bo'lmasa suhbat mavzusini boshqa tomonga burish lozim bo'ladi.

Nutq odobini shakllantirish tildan tashqarida bo'lgan omillarga ham bog'liq. Muloqot jarayonida tafakkur va ahloq kategoriyalarining vaziyatga qarab qo'llanishini va suhbat mavzusi atrofidagi bilimlarni umumlashtirib turuvchi omil sifatida katta ahamiyatga ega.

Inson muloqot jarayonida salomlashish, tanishish, xayrlashish, biror narsani iltimos qilish, tabriklash, minnatdorlik bildirish, singari ko'plab nutqiy vaziyatlarga duch keladi va ularning har birining o'ziga xos muomala odatlari mavjud. Bu odatlar ham umuminsoniy qadriyatlar darajasiga kirgan.

Masalan, salomlashishda: *assalomu alaykum ~ vaalaykum assalom, yaxshimisiz - xudoga shukur; xormang - bor bo'ling: xush kelibsiz — xushvaqt bo'ling; xayrlashishda: men boray bo'lmasa — o 'tirsangiz bo'lardi; xayr- omon bo'ling; yaxshi qoling- yaxshi boring; yana kelinglar - sizlar ham boringlar; iltimos qilishda: kechirasiz, agar mumkin bo'lsa; agar sizga malol kelmasa; sizdan bir narsani so 'ramoqchi edim; agar sizga og 'irlik qilmasa; imkoniyatingiz bo'lsa; so 'rash sal noqulay bo 'lib turibdi* kabi birikmalarni qo'llash ham ananaga aylangan.

Nutq (muloqot) odobi nutqdan tashqarida bo'lgan omillar- xulq-atvor, odob-axloq bilan bevosita bog'liq ekan, demak xizmat etikasi bilan birga tasnif etilishi tabiiy hol hisoblanadi. Xizmat etikasiga xos axloqiy-ma'naviy me'yorlar quyidagilardir:

1. Har bir xodim o'zining sohasini yaxshi bilishi, o'z ustida ishlashi lozim.
2. Xodim o'z ishiga ijodiy munosabatda bo'lishi, ish vaqtdan unumli foydalanishi, boshqalarga xalaqit bermasligi lozim.
3. Xodim hamkasblari bilan yaxshi munosabatda bo'lishi lozim.
4. Xodim ishxonada o'zini kamtar tutishi, kalondimog'lik qilmasligi, boshqalarni kamsitmasligi kerak.
5. Rahbar qo'l ostidagi hamma xodimlarga bir xil munosabatda bo'lishi zarur.
6. Rahbardan tortib oddiy xodimgacha mehnat intizomiga qat'iy amal qilishi kerak.

7. Rahbar xodimlarning fe'l-atvorini yaxshi bilishi zarur. Ularning oilaviy sharoitlaridan xabardor bo'lishi, zarur hollarda tashkilot fondidan moddiy yordam ko'rsatib turishi lozim.

8. Rahbarning ish faoliyatida adolat, haqqoniylik bosh mezon bo'lishi zarur.

## **MUOMALA MADANIYATI**

Muomala har qanday ishni ham eng oson bitirish mumkin bo'lgan "quroldir". Siz bu quroldan qanday ustamonlik bilan foydalansangiz sizning yutig'ingiz ham shu darajada ko'p bo'ladi.

Muomala madaniyati inson faoliyatidagi eng murakkab jarayon bo'lib, u kishilarning ijtimoiy va siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy, iqtisodiy va huquqiy dunyoqarashi yig'indisi hisoblanadi hamda inson tafakkuri va ruhiyatida yillar davomida shakllanadi. Muloqot madaniyatining shakllanishi qancha vaqt, bilim, qunt va intilish talab qilmasin, uni egallash umuminsoniy ma'naviyatning ajralmas qismi sifatida kundalik ehtiyojga aylanishi odamlar o'rtasida odat tusiga kirishi lozim.

Odamlar hayotining ma'lum bir qismi uning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bu faoliyat jarayonida xizmatchilik yuzasidan ko'plab kishilar bilan rasmiy-norasmiy muloqotda bo'ladilar. Binobarin, bu jarayonda muomala madaniyatining ahamiyati g'oyatda katta bo'ladi. Muomala madaniyatining yaxshi egallanishi kishilarning bir-birlarini hurmat qilishi va e'zozlashlariga, asablarini asrash va vaqtlarini tejashlariga olib keladi.

Muomala madaniyatining barchaga xos bo'lgan umumiy qoidalari mavjud. Ularga rioya qilish nafaqat har bir kishining, balki u mansub bo'lgan millatning, xalqning umumiy madaniyati darajasidan dalolat beradi. Suhbatdoshga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, uning yoshi, jinsi, jamiyatda egallab turgan mavqei va obro'sini e'tiborga olish ana shu madaniyatning ibtidosi hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun esa so'zlovchi o'zini hurmat qilishi va qadr-qimmatini bilishi lozim. Chunki o'zini hurmat qilishni bilmagan kishining boshqalarni hurmat qilishiga ishonish qiyin.

**Muomala jarayonida samimiyat, ochiq yuzlilik, shirinso'zlilik bilan bir qatorda, ehtiyotkorlik ham zarur. O'ylamasdan yoki shoshilib aytilgan bir so'z suhbatdoshning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning ushun hatto jahl chiqib turgan paytda ham muloyim bo'lishga harakat qilish, mansabdor shaxs, rahbarning oldiga biron masalani hal qilish maqsadida borganda uning kayfiyatiga qarab ish tutish, masalaning ijobiy hal bo'lishiga ko'maklashadi.**

## **TILNING IJTIMOIIY MOHIYATI**

### **TIL VA NUTQ**

Tafakkur - miyaning oliy mahsuli, faqat insonga xos bo'lgan ne'matdir. Tafakkur borliqni bilishni ta'minlaydi. U mehnat va ijtimoiy faoliyat jarayonida vujudga keladi hamda til vositalari yordamida yuzaga chiqadi. Natijalari tilda qayd etiladi. Tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Aytish mumkinki, tildagi har bir so'z, uning har bir shakli inson tafakkurining natijasi. Tafakkur bo'lmasa, til ham, nutq ham bo'lmaydi. Til tafakkurni ifodalash, uni talaffuz etish va boshqa kishilarga yetkazish vositasi hisoblanadi.

Til haqida, uning ijtimoiy mohiyati haqida ko'plab buyuk insonlar, allomalar o'zlarining fikrlarini bildirishgan. Jumladan, mutafakkir shoir Alisher Navoiy kishilarning bir-birlari bilan til orqali o'zaro munosabatda bo'lishini, til orqali bir - birlariga fikr va istaklarini yetkazishlarini va bu faqat insonlarga xos ekanligini bayon etib quyidagi bayonni keltiradi:

*"Insonni so'z ayladi judo hayvondin,*

*Bilkim guhari sharifroq yo 'q ondin".*

Rus yozuvchisi Vladimir Korolenko til haqida shunday deydi: "Til odamga o'z manfaatlarini qondirish uchun emas, aksincha, fikr—o'y tuyg'ular, o'zidagi haqiqat va ilhom uchqunlarini ifodalash hamda o'zgalarga in'om etish uchun berilgan. " Nutqiy faoliyat bu - kishilarning bir-birlariga tushinarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir.

Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Har bir millatning tili ikki xil ijtimoiy vazifani bajaradi:



1. Jamiyat a'zolari orasida o'zaro aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi.
2. Bir millatni boshqasidan ajratib turadi.

Har bir millatning borligini ko'rsatib turadigan belgisi til va adabiyotidir. Navoiy o'z ilmiy - adabiy qarashlarini asoslagan holda fors - tojik hamda arab tillarida ijod qiluvchi turkiy xalqlarni turkiy til atrofida birlashtirdi. Bu tilning boshqa tillardan kam emasligi, bu tilda ham go'zal asarlar ijod qilish mumkinligini o'z asarlari misolida isbotlab berdi. Natijada yaxlit bir millat tili vujudga keldi. Shoir bu haqda o'z asarida shunday deydi:

*Turk nazmida chu tortib men alam,*

*Ayladim ul mamlakatni yak qalam.*

Milliy tilni yo'qotmoqlik millat ruhini yo'qotmoqlikdir. Har bir millatning tilida o'sha xalqning bor-yo'g'i, o'y-u fikrlari, orzu-umidlari, turmush-tirikchiliklari gavdalanib turadi. Til juda katta ma'rifiy ahamiyatga ham ega. Til tufayli jamiyat a'zolarining har birida xosil bo'lgan bilim ommalashib, ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Bundan tashqari, til tufayli bilim avloddan-avlodga qoldiriladi. Natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan uni davom ettiradi. Til tufayli eng qadimgi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. U tufayli sezgi a'zolari bilan bilib bo'lmaydigan narsalarni o'rganamiz. Tilning yana bir xususiyati shundaki, insonning, tabiatning ko'zga ko'rinmas jihatlarini: his - tuyg'u, o'y- fikrlarini ham so'z shaklida o'zlashtiramiz va til vositasida o'zgalarga tushuntiramiz.

Til va nutq bir-birlariga bog'liq hodisalardir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Tilda **ruhiy va moddiy** material mavjud. So'z, so'z birikmalari va qo'shimchalarning kishi xotirasidagi obrazlari - ruxiy material hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma'lum tovush to'plamida namoyon bo'ladigan so'z shakllari fonemalar va tovushlar esa moddiy materialdir.

Biz biror fikrni yuzaga chiqarish uchun xotiramizda saqlangan qoidalardan tezkorlik bilan foydalanib so'zlar va grammatik vositalar asosida so'z shakllari va gaplarni xosil qilamiz. Masalan, miyamizda u kitobni qayerdan olganligini bilish fikri tug'ildi, deylik. Uni savol tariqasida shunday yuzaga chiqaramiz: "*Sen bu kitobni qayerdan olding?*" Bu gapda *sen, kitob, qayer, ol* so'zlaridan, -ni; -dan; -di; -ng;

qo'shimchalaridan, so'roq gap qoidasidan foydalandik. Gapni aytish jarayonida ongimizdagi so'zlarning obrazlari alohida qo'shimchalarni qabul qilib so'z shakllariga aylanadi va yuqoridagi shaklda tilimizga chiqadi. Bu jarayon tugashi bilan tilga tegishli narsalar yana o'z holiga qaytadi. Tilda paydo bo'lgan narsalar dastlab ayrim shaxslar nutqida ko'rinadi, so'ng asta— sekinlik bilan butun jamoa ongiga singadi. Shundan keyingina uni hamma bir xil anglaydigan, talaffuz etadigan bo'ladi.

**Tildagi mavjud vositalardan foydalangan holda mavjudlikka aylangan fikr –nutq deyiladi.** U nutq a'zolarining harakatlari jarayonida paydo bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ruhiy hodisa hisoblangan ifoda vositalari til ixtiyoriga o'tgach, nutqqa aylanadi. Nutq ikki xil bo'ladi: tashqi nutq va ichki nutq (fikir). Nutq kishi ongida ham hosil bo'lishi mumkin. Bu **ichki nutq**, ya'ni fikr hisoblanadi.

O'pkadan kelayotgan havoning nutq organlariga ta'siri natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq **tashqi nutq**dir. Nutq jarayoni tugab fikr tinglovchiga yetib borgach nutq ham tugaydi. Nutq jamoadagi alohida kishi yoki kishilarga qaratilgan bo'ladi. Nutqsiz kishilar jamiyatining bo'lishi mumkin emas. Demak, nutq sinfiy hodisa ekan.

Nutq yakka shaxs ijodi ekan, uning madaniyati ham shu shaxsning til imkoniyatlarini qay darajada o'zlashtirganiga va ulardan nutq jarayonida to'g'ri foydalana olishiga bog'liqdir. Tilning lisoniy imkoniyatlarini egallash ikki bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqich – til vositalarini bilishdan iborat. Ikkinchi bosqich– ularni nutq tezkorligiga aylantirib olishdan iboratdir. Mana shularga erishgan shaxsning nutqi ravon, bo'ladi.

Nutq madaniyati bir qancha ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Nutq madaniyati xususiyatiga ko'ra uslubshunoslikka yaqindir. Uslubshunoslik til uslublarini o'rganadi. Nutq madaniyati esa tilshunoslikning til normalariga aloqador hamma sohalari bilan bog'langan. Nutq madaniyatining asosiy tayanchi hozirgi adabiy til grammatikasidir. Chunki nutqning to'g'riligi uning asosiy fazilati hisoblanib, u grammatik me'yorlarga asoslanadi. Nutqning aloqaviy fazilati hisoblangan aniqlik, to'g'rilik, so'zning lug'aviy ma'nolari tavsifisiz tushunarsiz bo'ladi. Nutqning mantiqiyligi so'z ma'nolarining mazmuniy bog'lanishlariga asoslanadi.

Nutq madaniyatini mantiq va ruhshunosliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. So'zning ma'nosi va ifodalanayotgan tushuncha o'rtasidagi munosabatni mantiq tekshiradi. Mantiq so'zlar, birikmalar va gaplar o'rtasidagi ma'no aloqalarini aniqlaydi. Nutq qurilishi o'rinli yoki o'rinsiz bo'lib ko'ringan hayotiy holatlarda ruhshunoslikka murojaat qilishga to'g'ri keladi. Ruhshunoslik o'rinsiz aytilgan gaplar insonning ruhiy holatiga qanday ta'sir etishini aniq aytib berishi kerak.

## NUTQIY SAVODXONLIK

**Nutq madaniyati** tilni, uning qonun-qoidalarini yaxshi tushunish, aniq, ravshan ifodali nutq tuza olish, tilning ifodaviy vositalaridan mazmuniga, uslubiga ko'ra nutqiy vaziyatga qarab o'rinli foydalana olish mahoratidir.

Tilimizda "yozma nutq- savodxonlik asosi" degan tushuncha bor. Kishilarning yozma savodxonligi adabiy til me'yorlariga nechog'lik amal qilishi, fikrlarini to'g'ri, tushunarli ifodalashini namoyish qiluvchi moddiy sifatidir. Biroq kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda aksariyat yoshlarimizning imlo savodxonligi -moddiy sifati talabga javob bermaydi. Talabalar asosan, *so'zlarning yozilishida (bilim, fikr, shakl o'rniga blim, fkir,shakil tarzida yozish); bo'g'in ko'chirishda (do'st-lik so'zini do's-tlik, ona-si so'zini o-nasi tarzida ko'chirish kabi); a va o unlisining yozilishida (olimpiada, fonetika so'zlarini alimpiada, fanetika tarzida); juft undoshlarni yozishda (muvaffaqiyatli, taassurot, diqqat, baland so'zlari o'rniga muvafaqyatli, tasurot, diqat, balan shaklida); tutuq belgisini ishlatilishida (jur'at, mas'ul, ta'sir, she'r so'zlarini jurat, masul, tasir, sher tarzida); n undoshi o'rniga (shanba o'rniga shamba yozish kabi); x va h undoshlarini yozishda (mehrison, xabar, guruh so'zlari o'rniga mexribon, habar, gurux singari); ravishdosh va sifatdoshlarning yozilishida (yoqqach, aytgan o'rniga yoqqach, aytkan, so'zlarini yozish); egalik va kelishik qo'shimchalari imlosida (singlimning dugonasi o'rniga singlimni dugonasi shaklida yozish) kabi xatolarga yo'l qo'yishgan. Bu xatolar bir tomondan boshlang'ich sinflarda o'qituvchilarning aybi bilan sodir bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan darsliklarda imlo masalalarining muayyan tartibda berilmaganligidadir.*

Beruniyning takidlashicha, shakl mazmunga xizmat qilishi kerak, mazmunsiz har qanday chiroyli shakl ham el orasida e'tibor qozonmaydi.

So'zlovchining til imkoniyatlariga munosabati, mavzu atrofidagi bilimlari, vaziyatlarni hisobga olishi qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, uning nutq madaniyati shunchalik yuqori darajada bo'ladi. Masalan; aniqlik nutqning asosiy aloqaviy sifatlaridan biri bo'lib, yaxshi nutqning shakllanish shartlaridan biridir. Bu sifat faqat lisoniy faktordangina iborat bo'lib qolmasdan, tildan tashqarida bo'lgan holatlarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, til va tafakkur dialektikasi, ularning hamkorlikdagi faoliyati aniqlikni ta'minlaydi. Shuning uchun aniqlik deyilganda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan material o'rtasidagi mutanosiblik tushuniladi.

Ko'pincha nutqimizdagi noaniqliklar so'zlarning ma'nolarini bilmaslik natijasida kelib chiqadi. *"Shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovut tobora qisqarayotir"* misolida qisqarayotir so'zi maqsadni aniq ifodalay olmaydi. Chunki bu so'z odatda uzunlik o'lchoviga aloqador. "Tafovut" esa abstrakt tushuncha bo'lib, unga nisbatan "kamaymoq" so'zini qo'llash o'rinlidir. Tilning aloqaviy imkoniyati aniqlikni ma'lum ma'noda nisbiy tushunishni taqazo qiladi. Buning sababi shundaki, ko'pchilik so'zlarning ko'p ma'noli bo'lishi tufayli tabiiy ravishda ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida ma'lum ma'noni aniq ifodalagan so'z boshqa sohada noaniq ma'noga ega bo'lishi, tushunarli bo'lmasligi, ba'zan noto'g'ri ma'noga olib kelishi mumkin.

Masalan; *Berildi ushbuni Ahmedov Narzulloga shu haqdakim, mazkur Guliston tuman "Ulug' bek " shirkat xo'jaligida tug'ilgan va hozirgi kunda shu xo'jalikning 2-son ferma uchastkasida yashaydi. (Abituriyentga berilgan ma'lumotnomadan)*

Aniqlikni vazifaviy uslublar doirasida tushunish ham alohida ahamiyatga ega. U so'zlashuv uslubida vaziyatga bog'liq bo'ladi. Rasmiy ish qog'ozlari uslubida esa aniqlik, tildagi tayyor, qoliplashgan so'z va birikmalardan foydalanishni taqazo etadi. Ilmiy uslubda atama va ularning ifodalanish aniqligi asosiy o'rinda turadi. Publitsistik va badiiy uslublarda esa so'z va iboralar faqatgina estetik vazifani bajarishga qaratilishi kerak. Shunga ko'ra so'z qo'llash aniqligining chegarasini belgilash nihoyatda murakkab bo'lib, u til imkoniyatlarini mukammal bilishni taqazo etadi.

"Til-so'zlovchi istagini tinglovchiga yetkazuvchi tarjimon. Agar insonning so'zlash quvvati hamma joyga shamol singari yoyiluvchi bo'lmaganida edi, zamonlardan zamonlarga nafas singari o'tuvchi xat yozish san'atini keltirib chiqarmaganda edi uzoq o'tmish zamonlarning

xabarini bugungi zamon tillariga ko'chirib bo'lmas edi"- degan edi buyuk alloma Abu Rayxon Beruniy.

Haqiqatdan ham yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta'minlaymiz. Yozma nutq og'zaki nutq kabi kishilar o'rtasida aloqa vositasi emas, balki davrlar, zamonlar o'rtasidagi aloqa vositasi hisoblanadi. Biz qoldirgan meros yozma savodxonligimiz darajasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Yana shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchilarda so'z qashshoqligi tez-tez ko'zga tashlanadigan nuqsonlardandir. So'z va uning ma'nodosh shakllarini farqlashda muammolar mavjud.

Ma'lumki, kishilar o'z faoliyatining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladilar. Odamlar orasida fikr almashish bo'lmasa, jamiyatning halok bo'lishi muqarrardir. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. Shuning uchun har bir kishi uning imkoniyatlarini puxta o'rganib olishga harakat qilishi zarur. Har bir o'rganiladigan grammatik tushuncha, qoida og'zaki va yozma nutqimizni rivojlantirishini nazarda tutishimiz kerak bo'ladi.

Umrida maktab ko'rmagan odam tilni hayot, odamlar bilan aloqa qilish maqsadida o'zlashtiradilar. Tilning *moddiy sifati* fikrni xilma xil usul va vositalar bilan yuzaga chiqarish imkoniyatini beradi.

Me'yor jamiyatda ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda til imkoniyatlaridan foydalanish uchun ko'rsatkichlar majmuasidir. Me'yor adabiy til uslublari mezonlarida o'z aksini topadi. Masalan: bir talaba kitob do'koniga bormoqchi. Lekin kitob do'konining qayerda ekanligini bilmaydi. Shu maqsadda u *o'rtog'iga murojaat etganida: "o'rtog, falon kitobni olmoqchi edim. Kitob do'koni qayerda?", notanish yo'lovchiga: "Kitob do'konining qayerdaligini aytib berolmaysizmi?"* deya murojaat qiladi. Bu holat talaba ongida bo'lgan me'yor tushunchasining til imkoniyatlariga ta'siri natijasidir.

So'z, qo'shimchalar va gaplarning yozilishi ham me'yorga solinmasa yozuvda har xillik yuzaga keladi. Natijada ularni tushunish imkoniyati qiyinlashadi. Shuning uchun ham imlo qoidalarini har bir bo'limi bo'yicha puxta o'zlashtirish lozim.

Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, badiiy nutq, shuningdek ommaviy axborot vositalari uchun tayyorlangan matnlar va hujjatlar kiradi. Ko'rinib

turibdiki, hayotimizda keng foydalanadigan sohalar yozma nutq va savodxonligi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli har bir kishi o'z fikr, qarashlarini tilning imloviy - grammatik qoidalariga, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodalash, malakasini rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor bilan qarashi lozim.

Tildan ijtimoiy zarurat sifatida (faqat gaplashish uchun) foydalanib yurganlar uchun uni o'rganish ancha oson. Lekin uning imkoniyatlarini o'rganish, nutqiy savodxonlikni oshirish ancha murakkab masaladir.

**Nutqiy savodxonlik** mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash san'atidir. Bu ko'nikmalarni shakllantirish avvalombor o'zbek tilining so'z boyligini o'rganish, so'zlarning ma'nodosh shakllarini va ularning zid ma'nolarini tuza olish, yozma matn mazmuni, ma'no qirralari, sintaktik va grammatik munosabatlarini aniqlashda tinish belgilarining ahamiyatini o'rganish, ma'nodosh so'zlarni nutq uslublari maqsadidan kelib chiqib tanlash, gaplarning, matnlarning asosiy va yordamchi bo'laklarini aniq ajrata olish malakasiga bog'liq.

## NUTQNING ASOSIY ME'YORLARI

**Nutqning to'g'riligi** asosan ikki me'yorga - urg'u va grammatik me'yorga amal qilishni talab qiladi. Chet tillarida urg'u so'zlardagi har xil bo'g'inlarga tushishi mumkin. Lekin o'zbek tilida u asosan so'zning ohirgi bo'g'iniga tushadi. So'zlarga qo'shimchalar qo'shila borishi bilan urg'uning o'rni ham o'zgarib boraveradi. Masalan: *maktab – maktabi — maktabimiz — maktabimizda – maktabimizdagi –maktabimizdagilar* kabi.

Demak, talaffuzda ana shu me'yorni saqlash lozim bo'ladi. Bu masalaning birinchi tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni, so'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham ba'zan o'zgarib ketishini unitmaslik kerak. Masalan: yigitcha-yigitcha, olma-olma so'zlarini urg'usiz o'qiganimizda ularning qanday ma'no anglatayotganini tushunish qiyin. Faqat urg'u undagi ma'noni aniqlashga ko'maklashadi. Ya'ni olma so'zida urg'u

birinchi bo'g'inga tushsa, harakatni bildiradi. Oxirgi bo'g'inga tushsa, meva ma'nosini anglatadi. Bu so'zlardagi urg'udir.

O'zbek tilida mantiqiy urg'ular ham mavjud. Bunday urg'ular gaplar tarkibidagi ma'lum bir so'zga tushadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, gapda qaysi ma'no alohida nazarda tutilayotgan bo'lsa, shu ma'noni ifoda etayotgan so'z alohida urg'u bilan talaffuz qilinadi.

Masalan: "*Men kitob o'qidim*" gapida kim o'qigani, nima o'qigani va nima ish qilgani singari 3 xil ma'no bor. Ifoda etilayotgan fikr maqsadidan kelib chiqib urg'u e'tibor qaratilayotgan so'zga qo'yilishi lozim. Agar maqsad kitobni kim o'qiganligini ifodalash bo'lsa, urg'u men so'ziga qo'yiladi. Agar maqsad nima o'qilganini ifodalash bo'lsa, urg'u kitob so'ziga qo'yiladi. Agar maqsad nima ish bilan shug'ullanganligini ifodalash bo'lsa urg'u o'qidim so'ziga qo'yiladi. Yoki "Onasiz bola o'ynamas" misolini olib ko'raylik. Bu gapda ikki xil ma'no: "onasi yonida bo'lmasa, bola o'ynamaydi" degan, yoki "onasiz (yetim) bola o'ynamaydi" degan ma'nolarni tushunish mumkin. Fikr nima haqda borayotganligini ko'p holatlarda urg'u hal qiladi. Mantiqiy urgu odatda kesimdan oldingi so'zga tushadi va ma'no farqlash uchun xizmat qiladi.

Grammatik me'yorlar. Grammatik me'yorlarga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, ega va kesim mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish qonunlari, ega va kesimning shaxs va sonda mosligi kabilar hisobga olinadi.

Tilimizda, nutqimizda ko'p hollarda morfologik, sintaktik chalkashliklar uchrab turadi. Masalan: "Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi deyish qiyin" gapida jumla noto'g'ri tuzilganligi sababli fikr aniq bayon qilinmagan. Gap grammatik jihatdan noto'g'ri tuzilgan. Jumlaning to'g'ri shakli esa quyidagicha bo'ladi:

Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmasligi mumkin emas. Ko'p hollarda fikr ifodasining so'zdagi nomutanosibliigi holatlari ham uchrab turadi: "Fahriy o'qituvchining yuzlab shogirdlari hozirgi kunda turli sohalarda mehnat qilmoqdalar". "Fahriy o'qituvchining yuzlab shogirdi hozirgi kunda turli sohalarda mehnat qilmoqda."

**Nutqning aniqligi** - so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka to'la mos va muvofiq kelishidir. Aniqlikni boshqacha tushunish ham mumkin. Bu so'z va uning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ma'nosini qo'llanishiga

mos kelishidir. Anqlik so'zlarning lug'aviy darajalari bilan bog'liq bo'ladi.

Masalan: Oxirgi yillarda bu masalaga yanada jiddiyroq e'tibor berilmoqda.. Oxirgi, keyingi, so'nggi so'zlari sinonim bo'lsa ham, qo'llanish maqsadiga ko'ra bir biridan farq qiladi. Yuqoridagi gapda oxirgi so'zi o'rniga so'nggi so'zi ishlatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoki, "Bo'yi kattaroq, o'zi sap - sariq" gapini ko'raylik. Uzun - qisqalik, katta - kichiklik ikki xil o'lchovdir. Birida masofa, ikkinchisida hajm o'lchanadi. Shuning uchun bo'yi katta deb bo'lmaydi. Aksincha, *baland yoki past* desa to'g'riroq bo'ladi.

Anqlik nutqning asosiy aloqaviy sifatlaridan biri bo'lib, yaxshi nutqning shakllanish shartlaridan biridir. Bu sifat faqat lisoniy faktordangina iborat bo'lib qolmasdan, tildan tashqarida bo'lgan holatlarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, til va tafakkur dialektikasi, ularning hamkorlikdagi faoliyati anqlikni ta'minlaydi. Shuning uchun anqlik deyilganda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan material o'rtasidagi mutanosiblik tushuniladi.

Mantiqiy buzilishlar ko'p hollarda kulgili holatlarni vujudga keltiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, mashxur so'z ustalari ko'pincha mana shunday holatlarga murojaat qilishadi.

Nutqning mantiqiy bo'lishi, eng avvalo, so'zlovchining tafakkuri, uquvi va mahoratiga bog'liq. Mantiqiylik faqatgina tilni yaxshi bilish emas, o'zi mulohaza yuritayotgan mavzu atrofida bilimga ega bo'lishni ham talab qiladi.

Gaplar o'rtasidagi fikriy izchillikning yo'qolishi bilan mantiqiylikka putur yetadi. Masalan: *"Tahririyatga kelgan she'rlarni o'qib, bunisi yaxshi, bunisi yomon deyishga tilimiz bormaydi . Ularda mualliflarning nimadir demoqchi bo'lishayotgani sezilib turadi."* Yoki, *"Visolingga yetishni avvaldan jazm etardim joziba yarashmish sizga shunchalar"* (P. Mo'min).

Odatda ma'lum bir fikr tugab, ikkinchisi boshlangan joyda boshlanma (abzats) bilan ajratiladi. Bu yerda fikr tugalligi deganda yaxlit bir fikr nazarda tutiladi va u umumiy matn mazmunining bir qismi sanaladi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nutqning mantiqiyliigi yaxlit bir tizim asosida tuzilgan aniq bir maqsadga muvofiq ishlatiladigan nutqdir.

## **FIKRNI IFODALASHNING MANTIQUIY-LISONIY ASOSLARI**

Fikr tafakkur orqali vujudga keladi. Kishi ongida shakllangan fikr qachonki yuzaga chiqsa, u nutqqa aylanadi. Albatta bu jarayonning kechishi uchun kishida ong va tafakkur keng rivojlangan bo'lishi kerak. Fikrni ifodalash uchun til lozim. Til va nutq bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib biri ikkinchisini taqazo etadi. Lekin bularni farqli jihati: nutq suhbat jarayonida paydo bo'ladi va tugaydi so'ng boshqasi boshlanadi. Til esa davrlar o'tishi bilan rivojlanadi va shakllanadi. Til ilgaridan mavjud bo'ladi va uzoq yashaydi. Til nutq jarayonida namoyon bo'ladi. Demak, til birlamchi nutq esa ikkilanchi xodisa hisoblanadi. Tilsiz fikrni ifodalab bo'lmaydi. Hattoki, gung, saqov va karlarning ham o'zlariga tushunarli tillari mavjud.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanmasi, o'quv-metodik qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlari, taqriz va referat singlar uning ana shu janr ko'rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma'lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me'yoriga ko'ra umumiylikni tashkil etadi.

### **Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:**

**Aniqlik.** har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so'zlarni aniq, asosan bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo'lmaganda, neytral variantini qo'llash taqozo etiladi. Terminlarni qo'llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi: Kimyoviy tarkibiga ko'ra gerbitsidlar anorganik va organik gerbitsidlarga bo'linadi. Anorganik gerbitsidlar: natriy arsenit, ammoniy sulfat, kalsiy sianamid, sulfat kislota va boshqalar. Organik gerbitsidlar: traktor kerosini, mochevina hosilalari, xlorfenoksisirka kislota, xlorfenoksimoy kislota va boshqalar. Hozirgi vaqtda ko'proq organik birikmali va ba'zan anorganik birikmali gerbitsidlar qo'llaniladi.

**Obyektivlik.** Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi. "Mantiq" darsligidan bir misol keltiramiz: "Epimenid "Men yolg'on gapiraman" deb aytdi. Bu pa-radoksni mutlaqo hal etib bo'lmaydi. Aytaylik, Epimenid rost gapirdi, bu holda uning haqiqatda yolg'on gapirgani aniq bo'ladi. Aytaylik, u yolg'on gapirdi. Bu holda uning haqiqatda ham rost gapirgani ma'lum bo'ladi" .

Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

**Mantiqiy izchillik** ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzatslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlarda bu izchillikni yuzaga keltiruvchi ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinliki, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

**Qisqalik.** Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi: G'alla ekinlari urug'lari saqlashga ancha chidamli hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini sifatli urug' bilan ta'minlashda uni saqlash muhim tadbirdir. Ekiladigan g'alla urug'lari uchun davlat standarti belgilangan.

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas. Leksikasida esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarning ko'pligi hisoblanadi. Bu uslubda ham, xuddi rasmiy uslubda bo'lgani kabi, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash, tasviriy vositalardan unumli foydalanish xos xususiyat sanalmaydi. Subyektiv emotsionallik, obrazlilik, og'zaki nutq elementlari, umuman g'ayri adabiy unsurlar kam ishlatiladi. Mumkin qadar bayon bir xil me'yorda ifoda etiladi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda fikr yuritilayotgan manba, mavzu bilan uyg'un ravishda ba'zan bu uslubda ham obrazli ifodalardan foydalanish istisno emas. Masalan: Differensial

tenglamalarning xususiy hosilalari flzikaga cho'ri bo'lib ishga kirdi, keyin u cho'ridan bekaga aylanib ketdi (R.Bekjonov).

Muallif individualligining kam sezilarli bo'lishi ham ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to'g'risida M.Mukarramovning "Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili" monografiyasida quyidagi fikrlar bayon qilingan:

Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ko'pincha takror qo'llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. — lar ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalama-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so'zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan.

Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Rasmiy uslubdagiga o'xshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qo'llaniladi. Qo'shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi.

## **SHAXSIY NUTQ, UNDA NUTQ ME'YORLARIGA**

### **AMAL QILISH**

Alohida bir kishiga taalluqli bo'lgan nutq shaxsiy (monologik) nutq sifatida baholanadi. Bu nutq ikki xil ko'rinishga ega: ochiq(tashqi) nutq va ichki nutq.

Ochiq nutq jamoaga qaratilgan bo'lib, u turli xarakterdagi yig'ilishlarda, sessiyalarda, ilmiy anjumanlarda, dars jarayonida, hisobot yig'ilishlarida, har xil jamoalarning majlislarida, uchrashuvlarda, bayramlarda, to'y-u tomoshalarda, tig'ilgan kunlar, do'stlar uchrashuvi singari kichik davralarda, motam-marosimlarida so'zlanadi. Bu yig'ilishlarning mazmuni turlicha bo'lganligi sababli ularda so'zlanadigan monologik nutq xakteri ham bir-biridan farq qiladi. Masalan: bayramlar,

uchrashuvlar, to'y-u tomoshalar, tug'ilgan kunlar tantanali tarzda kechadigan yig'inlar bo'lganligi sababli ularda so'zlanadigan nutq ham tantanali ruh asosiga qurilgan bo'ladi. Hisobot yig'ilishlari va jamoalarining (ishlab chiqarish, rejalashtirish) majlislari rasmiy xarakterda bo'ladi. Kengashlar va sessiyalar keng qamrovli yig'ilishlar bo'lganligi uchun ularda rasmiylik ham, norasmiylik va tantanavorlik ham bo'ladi. Mavzuga qarab har xil faktlar, raqamlar keltiriladi. Motam mitingida so'zlanadigan nutq esa yuqoridagi nutqlarning barchasidan tubdan farq qiladi.

Nutq mavzusining bu tarzda turli—tuman bo'lishi ular uchun til vositalarining ham tanlab ishlatilishini taqazo qiladi. Masalan, quyidagi bayram tabrigiga e'tiborni qarataylik: *"Aziz va muhtaram onaxonlar, dilbar opa-singillar! Barchangizni yaqinlashib kelayotgan 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan chin qalbidan, samimiy muborakbod etaman.*

*Ayni, eng avvalo buyuk zot- onani fidoyi inson deb ulug'laymiz, chindan ham ayollarimiz tom ma'noda go'zallik, poklik va tinchlik timsoli. Shu sababli uyg'onish faslining ilk bayramini nafosat, mehr-muhabbat ayyomi sifatida shodu hurramlik bilan nishonlaymiz.*

*Mustaqillik yillarida ayollarga nisbatan hurmat-ehtirom tubdan o'zgardi. Ularning oilada, jamiyatda tutgan mavqei yanada ko'tarilib, huquq va manfaatlarini to'lata 'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qillsh davlat darajasidagi masala sifatida qarala boshlandi*

*Ayollarimiz sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, madaniyat, savdo, maishiy xizmat sohalaridan tashqari kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda ham faollik fidoyilik ko'rsatayotganliklarini ta'kidlash joiz. Zukko, izlanuvchan, tashabbuskor opa-singillarimiz oilaning, mahallaning, qolaversa, yurtning faxriga aylanishmoqda.*

*Aziz ayollar, loabar qizlar! Sizlarni yana bir bor nafosat bayrami bilan muborakbod etaman. Iqbolingiz yanada baland, umringiz uzoq, risqu nasibangiz ziyoda bo'lsin. Baxtimizga doimo sog'-omon bo'ling!*

Vaziyatga qarab kishilarga tantanavor ruh beradigan, ularni ilhomlantiradigan, safarbarlikka undaydigan, his-tuyg'ularini junbushga keltiradigan, mas'uliyatini oshiradigan, tartib-intizomga chaqiradigan, ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan yoki shunchaki axborot berishga qaratilgan til vositalari tanlanadi. Motam - marosimda so'zlangan nutq esa

mazmuni bilan ham, tanlangan soʻzlari bilan ham, tuzilishi bilan ham yuqoridagi nutq turlaridan tubdan farqlanadi.

Soʻzlovchining har bir nutqni soʻzlash jarayonida oʻzini tutishi, harakatlari, hatto kiyinishi ham farq qiladi. Boshqacha aytganda, farq qilishi kerak. Masalan, Oliy Majlis sessiyasiga toʻn kiyib borish odob sanalmagani kabi, azaga eʼtiborini tortadigan yaltiroq kiyimlarni kiyib borish yoki lab va qosh-koʻzlarini boʻyab borish ham maʼqul emas.

Demak, har bir monologik nutqiy vaziyat soʻzlovchidan alohida bir munosabatni va masʼuliyatni talab qiladi. Ayni paytda, umumiy boʻlgan qoidalar ham mavjud. Bu dastlab soʻzlanadigan nutqning qolipi - rejasi boʻlishi, qayerda va qanday vaziyatda soʻzlanishidan qatʼiy nazar, har bir nutq maʼlum reja asosida boʻlishi, auditoriya, vaqt hisobga olinishi lozim. Boshqacha aytganda, nutq soʻzlashdan maʼlum maqsad boʻlishi va bu maqsad amalga oshishi zarur. Buning uchun tinglovchilarga taʼsir oʻtkazib, taʼsir oʻtkazish uchun esa tildan foydalanishning ham, oʻzini tutishning ham taʼsirchan vositalaridan foydalanish kerak boʻladi.

Adabiy asarda monologning ichki koʻrinishi xarakterli boʻlib, badiiyat manfaati nuqtai nazardan ular alohida vazifani bajaradi. Shuning uchun Said Ahmad: "Yozuvchi faqat qahramonning tilidagini yozmay, uni ichidan ham gapirtira olishi kerak. Chunki ichidan gapirtirilganidagina, qahramonning ichki olami ochiladi. Qahramonning ichki olamini, ichidagi ohangni, ichki dardini yozuvchi oʻz tili bilan olib chiqadi" degan edi.

Darhaqiqat, yozuvchi qoʻlida ichki monolog qahramon qiyofasini oʻquvchi koʻz oldida butun borligʻi va murakkabligi bilan gavdalantirishga xizmat qila oladigan kuchli badiiy vosita boʻla oladi. " Shaytanatdagi Asadbek oʻquvchi koʻz oʻngida har ishga qodir boʻlgan qudratli kishi sifatida namoyon boʻlgan. Ammo u ham hamma qatori inson. Bedavo dard- saraton kasaliga yoʻliqqanida uning xayolidan oʻtgan kechinmalarni yozuvchi quyidagicha beradi: *"Toʻyib -toʻyib nafas olishga zor boʻlib oʻlaman. Jonim yoʻtal bilan chiqsa, oʻlganimni bilmay ham qolishadi. Birov xabar olguncha sasib yotaveraman. Jagʻimni tangʻishadi, oyoqlarimni bogʻlashadi. Dod - voy... Kim yigʻlaydi? oʻgʻillarim uzoqda. Zaynab dod solar balki... Yana bir - ikki xotin qoʻshilar... Xotinlarning yolgʻondan boʻlsa ham yigʻlab turgani yaxshi. Boʻlmasa bu uydan oʻlik chiqqanini birov bilmaydi. Xotinlarning yigʻisisiz oʻlikning ham fayzi boʻlmasa kerak, Manzura yetib kelsa, bu yogʻini oʻzi eplishtiradi! Yoʻ - oʻq ... u yigʻlamaydi. Jalilning onasi oʻlganmidi... ha, oʻshanda yigʻisini*

*eshitib "Dodlashni ham o'rniga qo'yar ekansan, o'lsam mazza qilib eshitib yotaman" deb hasratlashganimda " voy adasi, xotinlar eriga yig'lamaydi, ayb bo'ladi", degan. Qiziq, nima uchun ayb bo'ladi? Manzuraning yig'lashi shart ham emas. Balki ... qutilganiga shukur qilar?.. Menga tekkanidan beri boshi tashvishdan chiqmaydi. Endi yayrayman, deganida bolalarni o'qishga jo'natdim. Keyin chet elga yubordim. Ularni sog'indi. So'g'indi-yu, "sog'inayapman", deb zorlanishga mendan qo'rqdi. Qiziq... urmasam ham mendan qo'rqadiya... Zaynabning tashvishi uni tamom qildi. Yaxshi hamki keyingi voqealardan uzoqroqda. Bilsa yuragi yorilib ketardi. Kelinlarini boshlab kelib, rohat ko'raman deganida men cho'zilib yotsam... Bir hisobdan u kelgunicha jo'navorganim ham yaxshi.*

Asadbek qanchalik mag'rur inson bo'lmasin, u ham o'limga tan berishga majbur. Mana shunday paytda atrofdagilari birma - bir uning ko'zi oldidan o'tadi. Inson xarakteridagi mana shunday ojizlikni ochishda ichki monologning xizmati va vazifasi kattadir.

Tavsifiy matnlar esa so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tavsifi haqidagi xabar, ma'lumot mazmunida bo'ladi. Maqola, maruza, referat, insho, turli hujjatlar tavsifiy matnlarning turlari hisoblanadi. Ushbu turdagi matnlarda muallif tomonidan mavzuga oid fikr-mulohazalar bildiriladi. **Badiiy asarlarda badiiy-tasviriy vositalar, ilmiy asarlarda dalillar bilan ta'riflash, izohlash, isbotlash, asoslash, rasmiy hujjatlarda masala bayoni, maqolalarda bayon etish usuli** tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. **Masalan:**

*... Ta'birimiz qo'pol tushmasa bu go'zal qiz och ra'no gulining tilida yoki oq sariq tusda yaratilgan edi. Ozoda o'sgan tuklarga ham haligi tusning ta'siri bo'ladir. Ra'noning sochi gungurt - qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham quyoshda bir oz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi. Shunga o'xshash Ra'noning ko'zida ham buning amri ko'ruladir: mudavvarga moyilroq jodu ko'zi kishiga qattiq qaraganda qoraliqdan boshqacha yana bir turluk nur sochar edi. Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham ko'ndalang yotqan ikki qilich orasini nafis bir quyilib ko'tarilish ajratib turar edi. Uni hech bir munaqqidg'a berishmaslik mutanosib, har tomon uyalish tabassumiga hozir turg'an nafis irinlarining yuqorigi qismida sezilar sezilmas tuklar ko'kargan edi. Yuzi cho'ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo'lmas,*

*kishiga kulib qarag'anda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo'ladi, go'yo bizga chin ra'no guli ochilg'an holatda ko'rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar Ra'noning orqa, o'ngini tutib yotadi, qaddi uzunliq bilan qisqaliqning o'rtasi, do'ndiq barmoqlarining jimjilog'ida xina gullari, har holda bu qiz yolg'iz Qo'qonningg'ina emas, umuman, Farg'onaning kuylariga qo'shulib maxtaladiringan go'zallaridan edi.*

Tavsifiy matnlar, xususan shaxs tavsifi ham monologning bir turidir. *Anvar Bobobekov o'rta maktabni a'lo baholar bilan tugatgach, 2005-yilda Guliston davlat universitetining huquqshunoslik fakul'tetiga hujjat topshirdi va test savollaridan yuqori ball to'plab o'qishga qabul qilindi. O'qishga kirgan dastlabki kunlardan boshlab o'z qobiliyati bilan boshqa talabalardan ajralib turdi. Jamoat ishlarida faol qatnasha boshladi. Universitet "Zukkolar klubi" a'zosi sifatida talabalar o'rtasida bir qator ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarni o'tkazdi. U ingliz tilini yaxshi biladi, erkin gaplasha oladi. Bu tildagi ilmiy ma'ruzalar bilan chet mamlakatlarda o'tkazilgan ikkita anjumanda qatnashdi. "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining huquqiy asoslari" mavzusidagi ma'ruzasi Buyuk Britaniyaning Manchestr universiteti rahbariyati tomonidan munosib taqdirlandi.*

*Anvar o'z ustida tinmay ishlaydi, a'lochi va iqtidorli talaba sifatida universitet talabalari orasida yaxshi obro'ga ega.*

*U doimiy ravishda o'z malakasini siyosiy - ma'naviy va huquqiy saviyasini oshirish ustida qatiyat bilan ishlaydi.*

*Anvar Bobobekov - kamtarin, to'g'ri so'z, do'stlariga nisbatan g'amxo'r va mehribon.*

*Tavsifnoma "Umid" jamg'armasi tashkil etgan Buyuk Britaniya Manchestr universitetiga talabalikka yuborish uchun o'tkazilayotgan tanlov tashkiliy hay'atiga taqdim etildi.*

## **FIKR- MULOHAZA, TUSHUNTIRISH, IZOHLASH, ISBOTLASH**

Fikr-mulohaza, munosabat, izohlash, isbotlash va tushuntirish bir-biri bilan mustahkam bog'langan zanjirlardir. Ma'lumki, fikr o'z-o'zidan

tug'ilmaydi. U o'ylash, kuzatish, tahlil qilish, o'rganish asosida paydo bo'ladi. Bu jarayonda tabiiyki, nimadir ma'qullanadi, nimadir inkor qilinadi. Mana shu ma'qullash va inkor etish munosabatni taqozo etadi. Chunki, munosabat bo'lmasa tasdiqlash ham, inkor qilish ham, isbotlash ham bo'lmaydi. Demak, biror xodisa haqida bayon qilish, tushuntirish uchun avvalo o'sha xodisaga munosabat bildirish, tahlil qilish lozim ekan. Munosabat bildirish, tahlil qilish- fikr-mulohaza yuritish demakdir. Mazkur holat asoslanganidan, isbotlanganidan keyin bu haqda ma'lumot berish - tushuntirish hisoblanadi.

Fikrimizni shoir A.Oripovning "Tilla baliqcha" she'ri misolida davom ettiramiz:

**Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni,**

**Shu layqa hovuzga tomon otdilar.**

**Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,**

**Xoru xas, xazonlar ustin yopdilar.**

**Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha**

**Va mudroq tollarning achchiq xazoni.**

**Menga alam qilar, tilla baliqcha,**

**Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni...**

Har qanday she'rning asosida muayyan bir ma'no yotadi. Ushbu she'rda ham baliqcha timsolida berilgan g'oya shunday mahorat bilan ifodalanganki, chuqur mulohaza yuritmay turib bu g'oyani anglash mushkul. Baliqchanning qismati bugungi kunda hayot haqiqatini to'la anglab yetmagan, ma'naviyat, axloq tushunchalarini shunchaki kitobiy gaplar deb biladigan ayrim g'or yoshlarni eslatadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida katta ishlarni amalga oshirayotgan bilimli, iqtidorli yoshlardan faxrlangan xolda saviyasiz filmlarda ko'rganlarini hayot haqiqati deb biladigan tor fikrli yigit-qizlarning taqdiriga achinish tuyg'usi she'rning asl g'oyasini tashkil etadi.

Kitobxon she'rni o'qir ekan, o'z qobiliyatiga yarasha fikr yuritadi, ijtimoiy hayotda isbotini topadi.



**Izohlash** - bayon etilayotgan fikr (mazmuni) haqida atroflicha ma'lumot berishdir. Masalan, Qur'oni Karimda berilgan shunday oyatni olib ko'raylik.

**"(Ey Muhammad) Sizdan ruh va jon haqida so'raydilar."  
Ayting: "Ruh yolg'iz parvardigorim biladigan ishlardandir. Sizlarga juda oz ilm berilgandir."**

Bu oyatni asl holida o'qiganda har kim mazmunini o'z tasavvuricha tushunadi. Oyatning mazmunini barcha bir xil tushunishi uchun izoh ham berilgan: **Izoh: Ushbu oyatda Tangri taoloning hatto o'z Payg'ambarlariga ham ma'lum qilmagan ishlari borligi, insoniyat bilishi mumkin bo'lgan bilimlar juda ozligi ta'kidlanadi.** Mazkur izoh oyatdagi fikr haqida berilgan tushuntirishdir.

Insonning fikr-mulohaza yuritish, asosli gapirish, o'z fikrini quvvatlovchi dalillarga ega bo'lish xususiyatlari uning jamiyatda tutgan o'rnini belgilovchi asosiy belgilar hisoblanadi. O'ylamay aytilgan so'z, dalilsiz fikr-mulohaza shaxs mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, obro'-e'tiboriga putur yetkazadi.

**Isbotlash** - fikrni hayotiy dalillar asosida ifodalashdir. U ko'proq ilmiy, rasmiy va matbuot sohalarida qo'llaniladi. Ilmiy uslub tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi barcha xodisalar hamda narsalar haqida aniq, izchil va asoslangan ma'lumotlarni berishga mo'ljallangan uslubdir. Unda narsa-xodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlash, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi.

## FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild, Toshkent, 2005.
3. N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo’ldoshev “Davlat tilida ish yuritish”. Toshkent-2010.
4. S.A.Karimov, Sh.M.Maxmatmurodov, O.N.Karomova Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Toshkent, 2003.
5. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent, 1993.
6. N.Aminov va boshq. “Ish yuritish” Toshkent, 2000.
7. K. Abdurahmonov "O 'zbek tilining amaliy grammatikasi"
8. S. Karimov. "Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish", Toshkent-2003
9. R. Qo’ngurov, "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari", Toshkent-1992
10. U.Tursunov va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992.

Sirdaryo viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash  
va malakasini oshirish instituti

“Tillar va pedagogika , psixologiya ”

kafedra

Azamat O'rolov

## NUTQ VA MULOQOT MADANIYATI

*Bosishga ruxsat etildi: “26” mart 2014-yil*

*Bichimi: 60 x 841/16*

*Hajmi: 1.8 b.t Nusxasi: 100*

***SVPKQTMOI***

**«TAHRIRIY-NASHRIYOT»  
BO'LIMI'DA CHOP ETILDI.**

